

---

## QAMCHIPURUSH MFYDA HASHAR UYUSHQOQLIK BILAN O'TKAZILDI

Mamlakatimiz bo'ylab davom etayotgan umumxalq hasharlari Toshloq tumanidagi mahallalarda ham uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda.

Erta tongdan "Qamchipurush" MFYda boshlangan hasharda aholi faol ishtirok etdi. 200 nafarga yaqin aholi ishtirokida hududda obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Hasharda mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Yo'l chetlari, binolar va hovlilar atrofi, ziyoratgoh hamda qabristonlar obodonlashtirildi. Ariqlar tozalanib, daraxtlarni oqlash va butash ishlari olib borildi. Hasharchilarga mahalladagi xomiylar tomonidan tushlik tashkillanib osh tortildi. Unda yurtimizga tinchlik, dasturxonlarga va dehqonchiliklarga baraka tilab duolar qilindi.

2024-03-09 15:37:06